



ADABIYOT DARSLARIDA TADQIQOT METODINI QO‘LLASH

Marjona Toshpulatova,

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU mustaqil izlanuvchisi
Alfraganus universiteti o‘qituvchisi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207573>

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta’lim bosqichlarida adabiyot fanini o‘qitishda tadqiqot metodidan foydalanish haqida fikr -mulohazalar keltirilgan. Metoddan foydalanish ko‘rsatmalari Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi hikmatlarni o‘rganish misolida namuna sifatida bayon etilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad – o‘quvchilarda tadqiqotchilikni shakllantirish, tanqidiy hamda mustaqil fikrlash malakasini rivojlantirish, bilim va tasavvurlari doirasini kengaytirishdir.

Kalit so‘zlar: umumta’lim bosqichlarida, adabiyot, tadqiqot, tadqiqotchilik, tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish.

Adabiyot darslarida o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda interfaol metodlarni qo‘llashdan maqsad ularda mantiqiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish, badiiy matnni chuqur tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini tushunish, muallifning niyatini anglashi uchun zamin hozirlashdir. Fikrlar xilma-xilligini qabul qilish fikrlarni eshitish, o‘z qarashlarini asoslash va boshqalarning nuqtayi nazariga hurmat bilan yondashishni o‘rgatadi. Tanqidiy fikrlash faqat adabiyot darslari uchun emas, balki hayotiy muammolarni hal qilish, axborotni tahlil qilish va asosli qarorlar qabul qilish uchun ham juda muhimdir.

Mustaqil faoliyat va ijodiy ishlar o‘z-o‘zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil fikri, o‘z nuqtayi nazari bo‘lmagan o‘quvchi ijod qilolmaydi, mustaqil faoliyat yurita olmaydi.[1:5] Bugungi umumta’lim maktablarining asosiy vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish, bilim olish va ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalashdir. Aslida umumta’lim bosqichlarida o‘quvchi tafakkurini o‘stirish muloqot, jamoada ishlash, vaqtni boshqarish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish demakdir. Qiyinchiliklarni yengish, irodani mustahkamlash, muammolarni tahlil qilish, turli qarashlarga ochiq bo‘lishga o‘rgatish.

O‘qituvchi adabiyot darslarida ma’lum bir metodni qo‘llash orqali tahlil va talqinni o‘rgatishi, badiiy asardan estetik zavq tuyadigan faol adabiyot ixlosmandini kashf etishi mumkin. Maktabda adabiyot o‘qitishda tadqiqot metodidan asosan nazariy jihatdan qiyin bo‘lgan mavzularni o‘zlashtirish jarayonida va hajman yirik epik asarlarni o‘rganish foydalaniladi. O‘quvchilar tomonidan faktik materiallar



to‘plash tadqiqot metodining zaruriy qismidir. Mustaqil ravishda tajribalar o‘tkazish o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘qituvchi o‘quvchilar ixtiyoriga dalillarni topish, ularni taqqoslash, tizimga solish, umumlashtirishni topshirgani bilan uning muammolik darajasi kamaymaydi [2:100]. Bu metod asosan yuqori sinflarda tadqiqotchilik ko‘nikmasini shakllantirish uchun qo‘llaniladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga mustaqil, ijodiy topshiriqlar berish orqali ularni tadqiqotchilikka yo‘naltiradi. O‘quvchi tadqiqotni amalga oshirish davomida adabiyot darslarida egallagan nazariy bilimlarini qo‘llaydi. Bilimida bo‘shliqlar bo‘lsa uni to‘ldiradi. Ya’ni nazariy ma’lumotlarni takror o‘rganadi va o‘rganish davomida yangi bilimlarni o‘zlashtiradi. O‘zi uchun yangiliklarni kashf qiladi. O‘quvchi uchun yangilik bo‘lgan jihatlarni kashf etish bu – ilgari bilmagan, tushunmagan yoki e’tibor bermagan tomonlarini anglab yetish. Bu jarayonda o‘quvchi yangi tushuncha, fakt yoki qonuniyat haqida eshitadi yoki o‘qiydi va yangi ma’lumotni o‘z bilimlari bilan solishtiradi, sabab va natijalarini o‘rganadi. Shuning bilan birga ma’lumotning chuqur mazmuni, ahamiyati va undan qanday foyda olish mumkinligini tushunadi. O‘rganilgan bilimlarni boshqa mavzular bilan bog‘lagan holda mustaqil ravishda hayotda qo‘llay boshlaydi.

O‘quvchilar tadqiqot olib borishni bosqichma-bosqich o‘rganadi. Bu jarayon ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirishni talab qiladi. Buning uchun o‘qituvchining vazifasi quyidagilar:

1. Tadqiqotga qiziqish uyg‘otish
2. O‘quvchilarni qiziqtiradigan mavzularni tanlashga rag‘batlantirish.
3. Yangi ma’lumot topish jarayonining qanchalik foydali va qiziqarli ekanligini tushuntirish.
4. To‘g‘ri savollar qo‘yishni o‘rgatish
5. O‘quvchilarga kitoblar, maqolalar, ilmiy jurnal va ishonchli onlayn manbalardan foydalanishlari uchun metodik yordam ko‘rsatish.
6. Ma’lumotlarni tahlil qilish va sintez qilishni o‘quvchilar bilan birga bajarish.
7. Prezentatsiya yoki maqola shaklida natijalarni muhokama etishlariga ko‘maklashish.
8. O‘quvchilarning o‘z tadqiqot natijalari haqida fikr yuritishi, kamchiliklarini aniqlashi va ularni to‘g‘rilashi jarayonlarini kuzatib borish.
9. O‘z natijalarini boshqa tadqiqotlar bilan solishtirishda uslubiy yordam ko‘rsatish..

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Tadqiqot metodi o‘quvchida quyidagilarni shakllantiradi:

1. Ijodkorlik.
2. Izlanuvchanlik.
3. Fanga qiziqish.
4. Mustaqillik
5. Boshqaruvchanlik.
6. O‘z-o‘zini rivojlantirish.
7. O‘zini nazorat qilish.
8. O‘z tajribasidan foydalana bilish.
9. Aniq maqsad sari harakatlanish
10. Ta’lim jarayonida amaliyot va nazariyadan foydalanish.

Yosh avlodni qadriyatlar asosida tarbiyalashda hikmatlarning ahamiyati katta. Alisher Navoiy ijodini hikmatlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Uning hikmatlarida ilm komillik sari yo‘ldir. Buning uchun kishida hayo, vafo, sabrlilik, himmatlilik kabi yuksak fazilatlar mujassam bo‘lishi kerakligini bot-bot uqtirgan. Shoirning hikmatlari na zamon-u zamin, na mazhab-u din va na ijtimoiy tuzum siyosiy turkum jihatidan cheklangan [3:3]. Hazratning hikmatlarini o‘qib, uqigan har bir inson qalbida iliqlik yuguradi, dili yorishadi. Go‘yo, g‘ash, bezovta ko‘ngil taskin topadi. Shoir merosida ko‘p uchraydigan pand-u nasihatlar, inson, hayot, tiriklik, yashash mazmuni borasidagi o‘g‘itlar otaning farzandiga, ustozning shogirdiga, akaning ukasiga, ulug‘ donishmandning kelajak avlodiga yetkazayotgan hayot sabog‘i deyish mumkin [4:86]. Mutafakkirning olamiga chuqurroq kirib borish uchun uning jamiyat, inson zoti xilqati haqidagi purma’no fikrlari, badiiy talqinlarini ko‘zdan kechirish muhim ahamiyatga ega. Uning “Farhod va Shirin” dostonida 110 dan ortiq hikmat darajasiga yetgan baytlar uchraydi. Maktabda dostonni o‘qitish uchun o‘quv rejada 10 soat ajratilgan. Demak, dostonni o‘qitishning dastlabki soatlarida dostonni o‘qish va undan hikmat darajasiga yetgan baytlarni aniqlash, ularni to‘plash topshirig‘ini bajarish vazifa qilib beriladi. Hikmatlarni to‘plash jarayonida o‘quvchilarda tadqiqotchilik amalga oshadi, shuning bilan birga, tashkilotchilik, axborot bilan ishlash, jarayonda faol ishtirok etish, axborotni izlab topish, uni qayta ishlash, solishtirish, umumiy va xususiy tomonlarini aniqlash, zarur ko‘rinishga keltirish, taqdim etish kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Bunda tadqiqot guruhda yoki yakka tartibda olib borilishi mumkin. 9-sinfda adabiyot fani haftada ikki soat o‘qitiladi. O‘quvchi taxminan 45 kun davomida tadqiqot olib boradi. Asarni diqqat bilan o‘qiydi. Shu o‘rinda o‘quvchining hikmatlar haqidagi bilimini sinovdan o‘tkazish



maqsadga muvofiq. Chunki hikmatlar to‘g‘risidagi nazariy tushunchalar bilan 6-sinf adabiyot darsida tanishadi. O‘tgan biroz vaqt oralig‘ida o‘quvchining bilimida bo‘shliqlar kuzatilgan mumkin. Hikmatlardagi timsollar juda teran va murakkab. Ularni tahlil va talqin etish ham oson emas. Hikmatlarga erkin mushohada usuli bilan yondashish kerak. Ular odamni o‘z-o‘ziga tanqidiy nazar bilan qarashga undaydi. O‘zligini taftish qilishga yo‘naltiradi. [<http://ma'lumot.ru>.]

Tadqiqotni jadval asosida olib borish tavsiya etiladi. Quyida jadvalni keltiramiz. O‘quvchidan mukammallik talab etish to‘g‘ri emas. Dostondagi hikmatlarni aniqlashda o‘quvchilarning imkoniyati birdek bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun minimum talab qo‘yish o‘rinli deb hisoblaymiz. Chunki doston mumtoz adabiyot namunasi. Asar tilini tushunish ham biroz mushkul. Mustaqil izlanishlarni tashkil etishda vazifalar qanchalik aniq bo‘lsa, o‘quvchilar faoliyati shunchalik yengil kechadi. O‘qituvchi dastlab doston tarkibidagi hikmatlardan namuna keltirib sharhlaydi. O‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazadi. Tadqiqotni olib borish yo‘l-yo‘riqlarini batafsil tushuntiradi. Tadqiqot taxminan quyidagicha olib boriladi. Dastlab hikmatlar to‘planadi. So‘g‘nra jadvalga ma‘lum qoidalar asosida joylashtiriladi. Tadqiqot metodini chuqur o‘rgangan holda “Farhod va Shirin” dostonidagi hikmatlarni o‘rganishda quyidagi “Hikmatlar tahlili” jadvalini tavsiya etamiz. Ushbu jadvaldan dars jarayonida va uyga vazifa sifatida foydalanilsa yaxshi samara beradi.

*Ne qushkim, bo‘lsa himmatdin qanoti,
Emas past oshyong‘a iltifoti*

Kim o‘lsa himmat ilgidin kushodi

*Ne topsunkim, topilg‘ondur murodi. (“Farhod va Shirin” 9-bob 54-
bet)*

Shahekim, ilm nurin topti zoti,

Aning to hashr qoldi yaxshi oti

Sikandar topti chu ilm-u hunarni,

*Ne yanglig‘ oldi ko‘rgil bahr-u barni. (“Farhod va Shirin” 52-bob
513-bet)*

Kishidan yaxshi ot qolg‘ay jahonda.

Qila olg‘oncha ul bo‘lsin shioring –

Ki yaxshi ot qolg‘ay yodgoring. (“Farhod va Shirin” 52-bob 516-bet)

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Hikmatlar	Izoh	mavzu	Hikmat mazmuniga ko‘ra maqol
Ne qushkim, bo‘lsa himmatdin qanoti, Emas past oshyong‘a iltifoti Kim o‘lsa himmat ilgidin kushodi Ne topsunkim, topilg‘ondur murodi	Qaysi qushning qanoti himmatdan bo‘lsa, u pastdagi uyalarga nazar solib o‘tirmaydi, yuqoridagi uyalarni mo‘ljallaydi. Kimning ishi himmat qo‘li bilan yurishgan bo‘lsa, unga yana nima kerak? U barcha murodiga yetgan hisoblanadi	Himmatlilik buyuk fazilat.	Har kim himmatiga yarasha topar. Himmatli ko‘kka ko‘tarilar, Himmatsiz yerga ko‘milar. Himmatli himmatidan topar
Shahekim, ilm nurin topti zoti, Aning to hashr qoldi yaxshi oti Sikandar topti chu ilm-u hunarni, Ne yanglig‘ oldi ko‘rgil bahr-u barni	Ilm nuri bilan vujudi porlagan shohning qiyomatgacha yaxshi nomi qoladi Ilm-u hunarlarni egallagan Iskandar yer va quruqlikni qanday egallaganini tomosha qil.	Ilm komillikka eltadi.	<u>Ilm-u hikmat suvni yondirar.</u> <u>Ilmsiz bir yashar.</u> <u>Ilmli ming yashar.</u> <u>Ilmsizga ishonch yo‘q.</u> <u>Hunarsizga quvonch yo‘q.</u>
Kishidan yaxshi ot qolg‘ay jahonda. Qila olg‘oncha ul bo‘lsin shioring – Ki yaxshi ot qolg‘ay yodgoring.	Jahonda yaxshi ot qoldirishga erish Qo‘lingdan kelgancha o‘sha ishni o‘zingga shior qil, toki yaxshi oting dunyoda yodgor bo‘lib qolsin.	Yaxshilarga hayrat	Yaxshidan ot qoladi yomondan dod Yaxshining yaxshiga ortar himmati, yomonning yaxshiga ortar illati.

Dostonni o‘qishning yakuniy soatlarida musobaqa darsi tashkil etiladi. Sinf o‘quvchilari guruhlariga bo‘linadi. Tadqiqot natijasida o‘rganganlari sinovdan o‘tkaziladi. Dars davomida guruhlariga quyidagi topshiriqlar beriladi.

1. Guruhlarga bo‘lining, “Farhod va Shirin” dostonidan hikmatli so‘zlarni yozing va ularni ma’lum bir mavzular ostida birlashtiring.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



2.Hikmatni batafsil sharhlang va mazmuniga ko‘ra matn yarating. Yaratilgan matnni muhokamaga qo‘ying.

3.Hikmatlarga ko‘ra kashfiyotlarni aniqlash(qaysi kashfiyotga ishora)

4.Ushbu hikmat asardagi qaysi voqeaga ishora qilmoqda (izoh bermoqda)

5.Hikmatlarni hadislar bilan izohlang yoki qiyoslang (ushbu hikmat mazmuniga mos hadis yozing)

Adabiyot faqatgina o‘quv fani emas, balki hayotiy tajriba va inson ruhiyatini o‘rganish vositasi hisoblanadi. Maktabda adabiyot darslarida tadqiqot metodidan foydalanish nafaqat darslarni jonlantiradi, balki o‘quvchilarda bir qancha muhim qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammolarni hal qilish yo‘lida har bir o‘quvchining kuch va imkoniyatlariga ko‘ra o‘sishi kuzatiladi. An’anaviy darslardan farqli ravishda, o‘quvchilar faol ishtirok etadigan tadqiqot usulidan foydalangan holda tashkillashtirilgan darslar zerikarli emas, balki interaktiv va qiziqarli kechadi. O‘quvchilar asarlar ustida mustaqil ishlash, muhokamalar olib borish, kichik loyihalar yaratish orqali darsga qiziqib qatnashadilar Bu metod o‘quvchilarni asarlarga yuzaki emas, balki chuqur va ongli yondashishlarini ta’minlab beradi. Bu ularga kelajakdagi bilim va malakalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Tamaddun. –T.:2021. - 540.
2. Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил қилиш. Педагогика фанлари докт. дисс. автореф. –Т., 1998
3. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikasi.O‘quv qo‘llanma. - T.: Innovatsiya-ziyo, 2020. – 100. B
4. Рустамов А., Раҳматиллаева М. Сўз боши // Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар, - Тошкент, 1985. 3 – бет
5. Т.Хо‘jayев.Navoiy “Xamsa”si: obraz, badiiyat va mohiyat. T.2023:86-bet.